

FARG'ONA VODIYSINING TARIXIY GEOGRAFIYASI MAHMUD IBN VALI
TAVSIFIDA

Z.A.Ilhomov

Professor Nizomiy nomidagi TDPU

Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoning muhim siyosiy va geografik hududlaridan biri bo'lib, nafaqat O'rta Osiyo, balki butun Markaziy Osiyoda asrlar davomida sodir bo'lgan deyarli barcha tarixiy jarayonlarda muhim o'rin tutish bilan birga ularda sezilarli ta'sirga ham ega bo'lganligini e'tirof etish mumkin. Farg'ona vodiysi nafaqat siyosiy va iqtisodiy tarixiy jarayonlar, balki, mintaqa xalqining ma'naviy, madaniy, ilmiy taraqqiyoti jarayonlariga ham katta ta'sir ko'rsatgan. O'rta asrlarda, ayniqsa temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar sulolalarining hukmronligi davrlarida siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga jiddiy ta'sir o'tkazish bilan birga, XVIII asr boshlariga kelib alohida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Qo'qon xonligining asosiy hududi bo'lib qoldi. Farg'ona vodiysi, undagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlar, aholisi, uning tarkibi va mashg'uloti, tabiati, tog'lari va daryolari, umuman tarixiy geografiyasiga ko'plab qimmatli ma'lumotlar bir qator o'rta asr mualliflarining asarlarida tavsiflab berilgan. Bunday mualliflar qatorida Maxmud ibn Vali², Zaxiriddin Muhammad Bobur³, shuningdek, Muhammad Hakimxon to'ra⁴, Isxoqxonto'ra Ibrat⁵, Muhammad Aziz Marg'iloniy⁶ kabi Qo'qon tarixnavislik maktabiga oid ko'plab manbalarni ko'rsatib o'tish mumkin⁷.

O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar o'rta asrlarning mashhur geografi va sayohatchisi Maxmud ibn Vali tomonidan ma'lum darajada mukammal ko'rsatib berilgan bo'lib, ular orasida Farg'ona vodiysiga oid ma'lumotlar ham alohida e'tiborni tortadi⁸.

Mahmud ibn Valining otasi Mir Muhammad Vali asli farg'onalik, kasonlik bo'lib, Shayboniylardan Pirmuhammadxon (1546-1567-yy.) davrida Balxga borib qolgan. U o'qim ishli va keng ma'lumotli kishi bo'lib, asosan fiqh ilmida zamonasining peshqadam kishilardan hisoblangan. Mahmud ibn Vali 1596-yili tug'ilgan. 19 yoshga borganda, ya'ni 1614-yili u yirik fiqh va hadis olimi Mirakshoh Husayniyning xizmatiga kiradi va qariyb o'n yil undan saboq oladi. Mahmud ibn Vali fanning juda ko'p sohalarini, tarix, geografiya, ilmi nujum, ma'dansunoslik, botanika va boshqa sohalarini qamrab olgan "Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor" yoki "Bahr ul-asror" nomli o'ta

² Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Ташкент, «Фан». 1977.

³ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. -Т.: Юлдузча. 1989

⁴ Мухаммадхакимхон. Мунтахаб ут-таворих (Тарихлардан сайланма китоб) / Форс-тожик тиладан таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи Ш.Х. Воҳидов. Қўрсаткичлар тузувчилари Д.Сангирова, Ш. Юнусов. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2010. – 720 б.

⁵ Исҳоқхонто'ра Ибрат. Тарихи Фарғона. Тошкент. «Маънавият». 2005.

⁶ Мухаммад Азиз Маргилоний. Тарихи Азизий (Фарғона чор мустамлакаси даврида). Нашрга тайёрловчилар, сўзбошн ва изоҳлар муаллифлари: Шодмон Воҳидов, Дилором Сангирова. Тошкент «Маънавият» 1999.

⁷ Qarang: Воҳидов Ш. Қўқон тарихнавислик мактабининг шаклланиши. Тар.фан.док...дисс. Т.1998.

⁸ Ilhomov Z.A. O'rta Osiyo xonliklari tarixiy geografiyasi. Toshkent. «Bookmany print» nashriyoti 2024. 148-168-betlar.

qimmatli qomusiy asarini yaratdi. Bundan tashqari u qator ilmiy va badiiy asarlar yaratgan bo'lib, ular bizgacha yetib kelmagan.

Bahr ul-asror fi manaqib ul-ahyor ("Olijanob kishilarning jasorati haqidagi sirlar dengizi") nomli tarixiy-geografik asar bo'lib, Ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xoni Nodir Muhammadxon ibn Dinmuhammadxon ibn Jonibek sulton (1592 taxm. 1651) (1642-1645) farmoni bilan yozilgan. Asar fors tilida yozilgan.

1634-1640-yillar orasida yozilgan "Bahr ul-asror" asari mundarijasida ko'rsatilishicha, yetti jildan iborat bo'lgan. Uning II-VII jildlari jahon tarixiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston va u bilan qo'shni mamlakatlarning qadim zamonlardan to 1640-yilgacha kechgan tarixidan bahs yuritadi. Afsuski, bu muhim va qimmatli asarning faqat I va VI jildlarigina topilgan, xolos. Asarning birinchi jildida yetti iqlim mamlakatlarining, shuningdek, O'zbekistonning o'rta asrlardagi shahar va viloyatlarining geografik holati, xalqi va uning turmush tarzi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. "Bahr ul-asror" ning VI jildi alohida qimmatga ega. Unda XIII-XVII asrning birinchi yarmida Chig'atoy ulusi, O'rta Osiyo, va Shimoliy Afg'oniston tarixi keng va atroflicha yoritilgan⁹.

Asarda Farg'ona vodiysi, unda joylashgan yirik siyosiy va iqtisodiy markazlar sanalgan shaharlar, vodiya va uning atrofida joylashgan tog'lar, daryolar kabilar haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan bo'lib, Farg'onaning o'zini quyidagicha tavsiflaydi: -"Farg'ona - beshinchi iqlimdandir. Farg'onaning ko'pgina mavzolari Movarounnahr tarkibiga kiradi. Farg'ona bepoyon viloyat bo'lib, islomning chegarasidir. Farg'onada Axsikat, Koson, O'zgand¹⁰ kabi mashhur muzofotlar bor. Farg'onaning yana bir yirik shahari - Andijondir, hozirgi vaqtda Andijon Farg'onaning poytaxtidir"¹¹.

Muallif Farg'ona vodiysining iqlimi haqida alohida to'xtalib o'tadi: - "Farg'onaning iqlimi salqin, suvi Sirdaryodir. Yerlari serunum, serhosil. Mevalardan uzum, o'rik, olma, shaftoli, ayniqsa poliz ekinlaridan qovuni mashhurdir. Xalqi jangchilardan tortib oddiy xalqqacha jangovor va tadbirkordir. Farg'onada olimlar va ulamolar ko'p, biroq ko'pgina xuqushunos olimlar shu yerdan yetishib chiqqan. Farg'onada oltin, kumush, mis, neft, lazurit kabilarning konlari juda ko'p. Biroq hozirgi vaqtda o'zaro urushlar sababli bu konlardan foydalanilmaydi"¹².

Shu o'rinda Isxoqxonto'ra Ibratning Farg'ona vodiysi haqida keltirib o'tgan ma'lumoti ham e'tiborni tortadi, bu ma'lumotlar mahmud ibn valining Farg'ona vodiysi borasida bergan ma'lumotlarini to'ldirib keladi: -"Farg'ona Turkistonda bir katta muzofot o'lub, ilgari vaqtlarda musulmoniya hukumatida Xo'qand xonlari tarafidin idora qilinadurgon bir hukumati mustaqala edi. Bu kunlarda O'rta Oziyo qit'asidagi

⁹ Qarang: Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Ташкент, «Фан». 1977.

¹⁰ O'zgan - Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyatidagi shahar. O'zgan 2000 yildan ko'proq tarixga ega bo'lib, miloddan avvalgi II-I asrlarda shakllangan. Qadimgi O'zganing arki va uchta shahristoni bo'lib, ularda XVI asrgacha aholi yashagan. Qadimiy O'zgan katta siyosiy va ma'muriy mavqeni egallagan. O'rta asrlarda O'rta Osiyodan Koshg'arga olib boruvchi savdo yo'llari ustida joylashgan muhim markazlardan biri bo'lgan. XII asrda Qoraxoniylar davlatining ikkinchi poytaxti hisoblangan. Hozirda O'zgan XI asrga oid minora, XI-XII asrga oid uch gumbazli maqbara saqlanib qolgan.

¹¹ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). 64-bet.

¹² Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). 65-bet.

shaharlardan hisob bo'lib, bir gubernalik muzofotdur. Farg'ona gubernasi shimoli sharqiy tarafidan Samarchin, shimoli g'arbiy tarafidan Sirdaryo yoki Turkiston, g'arbi janub tarafidin Buxoro xonlig'i mahkumi topoyir. Ya'ni Shag'non hukumati mustaqalasiga muttasildur. Janubi sharqi Ching'a tobe' Turkistoni Sharqiy, eski Koshg'ar mahkumig'a muttasildur. Farg'ona aholisi aksariyatda o'zbek, sort, tojik, qoraqalpoq, qipchoq tog' taraflarinda ... qirg'iz - yerli xalqlar bulardin iboratdur"¹³.

Mahmud ibn vali Farg'ona vodiysining yirik siyosiy va iqtisodiy markazlari hisoblangan bir qator shaharlar, jumladan, Aysi, Andijon, O'sh, Ho'jand shaharlarining geografik o'rni va ularga xos bo'lgan iqlimi, tabiati. Yo'llari va boshqalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tadi. Maxmud ibn Valining ma'lumotlarida tavsif etilayotgan shaharlarda yashagan va ma'lum bo'lgan taniqli shaxslar, ularning ismi-sharifii, ijodi haqidagi qimmatli ma'lumotlar ham keltirilgan bo'lib, dastlab Axsining tavsifi keltiriladi: "Aysi – Farg'ona vodiysida joylashgan mashhur shaharlardan biri sanaladi. Movarounnahrning ko'plab shayxlari va olimlari Aysi¹⁴ shaharda yetishib chiqqan bo'lib, shoir Asir Axsikentiy ham shu shahardandir"¹⁵.

Muallif tomonidan tavsifi keltirilgan keyingi shahar Andijon edi: "Andijon - Movarounnahrning yirik shaharlaridan biri bo'lib¹⁶, Farg'ona viloyatining markazidir, beshinchi iqlimdandir va havosi ham toza. Mevali daraxtlari ko'p bo'lib, daraxtlari serhosil va mevalari shirin"¹⁷.

Farg'ona vodiysining keyingi yirik shaharlaridan biri sifatida O'sh shahri ko'rsatiladi va uning geografik o'rinlashuvi atroflicha bayon etib beriladi: "O'sh – Farg'ona vodiysidagi Qoshg'ar¹⁸ va Uyg'uriston¹⁹ yaqin joylashgan shahar²⁰. Islom olamida ancha mashhur bo'lib, Sulaymon payg'ambar nomi bilan bog'lanadi, bunga asos qilib Taxti Sulaymon degan joyning²¹ borligi ko'rsatiladi. Hozirgi vaqtda²² atrofidagi qabila va urug'larning vaqti-vaqti bilan talonchilik qilishi natijasida O'sh shahri o'zining farovonligini ancha yo'qotgan"²³.

¹³ Исҳоқхонтўра Ибрат. Тарихи Фарғона . Тошкент. «Маънавият». 2005. 6-bet

¹⁴ Aysi – Sirdaryonig o'ng qirg'og'ida, hozirgi Namangan viloyati hududlarida joylashgan qadimiy tarixga ega shahar bo'lib, shaharga miloddan avvalgi III-II asrlarda asos solingan. O'rta asrlarda Temuriylardan Zahiridin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzoning qarorgohi ham shu shaharda bo'lgan.

¹⁵ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Стр. 15.

¹⁶ Andijon – hozirgi Andijon viloyatining ma'muriy markazi bo'lib, 2500 yillik qadimiy tarixga ega shahar sanaladi. Arxeologik tadqiqotlarda shaharning ayrim qismlarida milodiy VII va VIII asrga oid arxeologik ob'ektlar ham aniqlangan.

¹⁷ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Стр. 17.

¹⁸ Qashqar – hozirgi kunda Xitoy Xalq Respublikasi tarkibidagi shahar. Qashg'ar shahri qadimiy tarixga ega bo'lib, miloddan avvalgi 1-ming yillikda - Taklamakan cho'li va Pomir tog' etaklarining bepoyon kengliklarida yuedji, usun va sak qabilalari kezib yurgan paytdan boshlanadi. Ular bir joydan ikkinchi joyga ko'chib turishi va vaqt o'tishi bilan vohalarda kichik qishloqlar paydo bo'la boshlagan, keyinchalik ular Buyuk Ipak yo'lidagi shaharlarga aylangan. Miloddan avvalgi II asrda Yuedji qabilalari Qashqar va butun Sharqiy Turkiston hududidan usunlarni siqib chiqarib, qadimgi Sharqning eng yirik va qudratli davlatlaridan biri — Kushonlar podsholigiga asos solgan. Bu Rim imperiyasi bilan teng savdo va siyosiy aloqalarga ega bo'lgan dunyodagi eng kuchli davlatlardan biri edi. Aynan shu davrda Qashqar gullab-yashnadi va Sharqning yirik savdo shaharlaridan biriga aylandi.

¹⁹ Uyg'uriston - Sharqiy Turkiston yoki Uyg'uriston (Uyg'urcha Uyg'urstan) — Xitoyning Shinjon o'lkasidagi yirik viloyat nomi. Bu erda Qashqar, Xo'tan, Yorkand, Turfon, Kucho, Urumchi kabi ko'plab mashhur tarixiy shaharlari joylashgan.

²⁰ O'sh – hozirgi Qirg'iz Respublikasining O'sh viloyati markazi. O'sh shahri O'rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan sanalib, miloddan avvalgi IV-III asrlarda asos solinganligi ta'kidlanadi, IX-Xo'sh shahri Somoniylar davlati tarkibida bo'lib, bu davrda shahar shahriston, ark, rabotdan iborat bo'lgan. Hokim saroyi va devonxona ark ichida joylashgan. O'sh atrofi baland qal'a devori bilan o'ralib, uning chekkasi Sulaymon tog'igacha etgan. Shaharning Ko'h, Ob, Mug'kada deb atalgan uchta darvozasi bo'lgan. O'sh shahari orqali Movarounnahrda Xitoy va Hindistonga savdo yo'li o'tgan. X-XII asrlarda Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. XIII asrda mo'g'ullar istilosi natijasida xarobaga aylangan. XIV asrda Amir Temur tomonidan qayta tiklandi XVIII asrdan boshlab O'sh shahri Qo'qon xonligi tarkibiga kiritilgan.

²¹ Taxt Sulaymon – Hisor tog'larida joylashgan ziyoratgohlardan biri.

²² 1590 yillardagi holati haqida so'z yuritilmoqda.

²³ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Стр. 19.

Mahmud ibn Vali Ho'jand shahri haqida ham ma'umotlar keltirib, uni Farg'ona va Samarqand orasida joylashgan viloyat sifatida ta'riflab, Ho'jand va uning atroflarida bo'ladigan mevalar, vilofyatning iqlimi va tabiati haqida to'xtalib o'tadi: -"Ho'jand – Movarounnahrning viloyatlaridan biri bo'lib, Samarqand va Farg'ona viloyatlari oralig'ida joylashgan. Ho'jand²⁴ning iqlimi juda ajoyib va yoqimli. Viloyatda asosan o'rik, yong'oq, shaftoli, anor, olxo'ri va sabzi ko'p yetishtiriladi va tashqi savdoga chiqariladi. O'zbeklarning ko'p sonli yurishlari hamda qozoqlarning bosqinlari natijasida shahar tanazzulga uchradi. Bu yerda mashhur tarixiy shaxslardan Kamoliddin Ho'jandiyning²⁵ qabri joylashgan"²⁶.

Shu o'rinda "Boburnoma" asarida Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Samarqand hokimi sulton Ahmad mirzoning ham Toshkent va uning atroflariga urush qilib kelganligi voqealari bayon etilgan qismida Ho'jand haqida keltirgan ma'lumoti e'tiborni tortadi, muallif uning geografik o'rni haqida quyidagicha fikr bildiradi: -"... Oxir chog'larida Toshkent va Shohruxiya²⁷ iliktin chiqib edi. Farg'ona, Xo'jand va O'ratepakim, asl bularning otlari kitoblarda Ushrushnadir va Ushrush xam bitirlar, qoldilar. Xo'jandni ba'zi doxili Farg'ona emas derlar"²⁸.

Mahmud ibn Valining asarida Farg'ona viloyati va uni o'rab turgan tog'lar, vodiyning suv manbalari bo'lgan daryolar haqidagi ma'lumotlar ham diqqatga sazovordir. Bu borada muallifning Xitoy tog'lari, Farg'ona tog'lari, tog'larning tabiati va iqlimi, o'simlikelari va konlari hamda foydali qazilma boyliklari haqidagi, Xo'jand va Shohruxiya daryolari nomlari bilan atalgan Sayxun daryosi hamda Farg'ona va Axsikatning daryosi hisoblangan Tapta daryosi haqidagi ma'lumotlari qimmatlidir. Farg'ona vodiysidagi va u bilan tutash tog'lar haqida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: - "Xitoy tog'lari – bu tog'larning boshlanishi Xitoyda bo'lganligi sababli uni Xitoy tog'lari deb ataydilar. Bu tog' sharqdan g'arbga tomon cho'zilib, Farg'ona, Samarqand va Kesh, undan keyin esa Xuttalon va Badaxshonning o'rtalarigacha yetib keladi. Bu yerda u ikki tizmaga ajralib, biri Balxga yetib boradi, ikkinchisi Garchiston va Gura orqali Xirotda tomonga, Obivard va Nishopurga tomon cho'zilib ketgan. Konlarining asosi qismi oltin, kumush, mis, temir, qo'rg'oshin, simob, nepft, feruza va boshqalardir. Garchiston hududlaridan Sulton Sanjar²⁹ hukmronligi yillarida ehtiyojga qarab oltin qazib olingan.

²⁴ Xo'jand – O'rta Osiyoning qadimgi shaharlaridan biri bo'lib, miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida asos solingan. Shahar hududidan miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid tarixiy ashyolar topilgan. Miloddan avvalgi 329 yilda Xo'jand Makedoniyalik Aleksandr tomonidan egallangan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Buyuk Ipak yo'li bo'yida joylashgan bu shahar VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xo'jand nomi bilan mashhur bo'lgan. Xo'jand VIII asrda Arab halifaligi, XIII asrda Mo'g'ullar saltanati, XIV-XV asrlarda Temur va Temuriylar davlati, XVI dan boshlab Shayboniylar davlatlari tarkibida bo'lgan. XVIII-XIX asrlarda Qo'qon xonligi hamda buxoro amirligi o'rtasidagi chegara hudud bo'lib, bir necha bor har ikki xonlik tarkibida bo'lgan.

²⁵ Kamoliddin Ho'jandiy - O'rta Osiyoning taniqli shayxlaridan va shoirlaridan biri, Ho'jandda tug'ilgan. Umrining asosiy qismi Tabrizda kechgan, shuningdek, To'xtamishxon huzurida Saroy Berkada ham yashagan, 1390 yilda Tabrizda vafot etgan.

²⁶ Mahmud ibn Vali. More tayn otositelno doblestey blagorodnykh (geografiya). 40-bet.

²⁷ Shohruxiya - XIV-XIX asrlarda mavjud bo'lgan, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan o'rta asr shahri. 1392 yilda Amir Temur uni harbiy qal'a sifatida qayta tiklab, o'g'li Shohrux sharafiga «Shohruxiya» deb atagan. Temuriylarning Oltin O'rda bilan kurashida muhim strategik maskan vazifasini o'tagan. XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Shohruxiya Sharqiy Movarounnahrning yirik harbiy markazlaridan hisoblangan. 1502 yil Shayboniylar tomonidan egallangan va ularning Toshkent mulki tarkibiga kiritilgan. Shohruxiyada, odatda, valiahd shahzoda noib bo'lgan.

²⁸ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. 10-20-бетлар.

²⁹ Sulton Sajar - Sulton Sanjar, Sulton Muiz addunyo vad Din Abul Xoris Sanjar ibn Malikshoh (1086 yil 27 iyun, Jazira viloyati Sanjar shahrida tavallud topgan – 1157 yil 26 aprel, Marv shahrida vafot etgan) - Saljuqiylar davlati hukmdori, sulton. Akasi Sulton G'iyosiddin Muhammad vafotidan so'ng, 1118 yilda taxtga o'tirgan.

Avvallari shu tog'ning Farg'ona O'zgandidagi qismida novshadil olingan, biroq hozir undan foydalaniladimi yoki yo'qmi, noma'lum"³⁰.

Keyingi o'rinda Farg'ona tog'lari haqida so'z yuritiladi: -"Farg'ona tog'lari – Movarounnahrning yirik viloyatlaridan sanalgan Farg'ona vodiysida joylashgan tog'. Bu tog'larda feruza, simob, mis, oltin, neft, novshadil qazib olinadi"³¹.

Farg'ona vodiysi va uning hududidga tutash daryolar haqida esa quyidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin: - "Sayxun daryosi – bu daryo Movarounnahrning yirik daryolaridan biri bo'lib, hadislarda aytib o'tilgan Sayhon - Sayxun daryosidir"³². Uni shuningdek, Xo'jand va Shoxruhiya shaharlari atrofidan oqib o'tganligi sababli Xo'jand va Shoxruhiya daryolari deb ham atashadi. Uning boshlanishi Qorataginda bo'lsa, quyilishi joyi Xorazm ko'lidir. Ayrim sovuq bo'lgan yillarda suvi muzlaydi, bu vaqtda savdo karvonlari bemolol uning ustidan o'ta oladilar. Sayxun daryosining uzunligi sakson farsangdir³³. Farg'ona va Axsikatning daryosi hisoblangan Tapta daryosi³⁴ Sayxunga quyiladi. Sayxun Xorazm ko'li va Jayxun daryosi bilan birgalikda Xazar dengiziga quyiladi³⁵.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'rta Osiyoning, xususan, Farg'ona vodiysining tarixi va tarixiy geografiyasiga oid ma'lumotlar bugungi kun tadqiqotlarining dolzarb muammolaridan biri sifatida o'rganilgan ko'pgina ilmiy tadqiqotlarning xulosalari mavjud, ularning yuqoridagi manbalar asosida o'rganilishi va atroflicha yoritib berilishi O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davri tarixining yanada mukammal o'rganilishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

³⁰ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). 89-91-бетлар

³¹ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). 93-бет

³² Sayxun daryosi - Sirdaryo - O'rta Osiyodagi eng uzun va Amudaryodan keyin eng sersuv daryo. Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida Yaxartes - Yaksart, Tanais, "Avesto" da - Danu, xitoy manbalarida Yaosha, runiy (turkiy) yozuvlarida Yenchuo'giz, Firdavsiyning «Shohnoma»sida va Hamdulloh Qazviniyning «Nuzhat ul-Qulub» asarida Gulzarriyuni, arablar kelgandan keyingi solnomalarda Sayxun, arab geograflaridan Ibn Xurdodbeh asarlarida Xashart va Qanqar, Abu Rayhon Beruniy asarlarida Xasart shakllarida tilga olingan. Ayni vaqtda u qaysi yerdan oqib o'tishiga qarab Obi Farg'ona (yoki Farg'ona daryosi), O'zgan daryosi, Obi Xo'jand (Xo'jand suvi), Nahr ash-Shosh (Shosh daryosi), Banokat daryosi deb ham atalgan. Farg'ona vodiysining sharqiy chekkasida, Baliqchi qishlog'i yonida Norin daryosi bilan Qoradaryo qo'shilgan joydan Sirdaryo deb ataladi. O'zbekistonning Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Sirdaryo viloyati, Tojikistonning So'g'd viloyati, Qozog'istonning Janubiy Qozog'iston va Kizilo'rda viloyatlari bo'ylab avval g'arb, janubiy-g'arb, so'ngra esa shimol, shimoliy-g'arbgacha tomon oqib, Orol dengiziga quyiladi. Uzunligi 2272 km, Norin daryosining boshlanish joyidan - 3018 km.

³³ 80 farsang – 444 km ga teng.

³⁴ Tapta daryosi – Kosonsoy bo'lishi mumkin.

³⁵ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). 96-бет.